

Sirdaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yanvar-mart
2019 yil


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 58,3%ni tashkil etdi.
- 789 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 18,6 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-martida 789 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (34,6%), sanoatda (21,7%), qurilishda (12,4%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (9,4%), yashash va ovqatlanishda (13,8%), tashish va saqlashda (2,4%) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar- martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	7683	8977	1294
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	362	789	427
YaHM	%	64,7	58,3	-6,4
Sanoat	%	40,9	34,0	-6,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,4	99,3	1,9
Investitsiya	%	68,9	53,7	-15,2
Qurilish	%	96,5	95,3	-1,2
Savdo	%	94,3	88,2	-6,1
Xizmatlar	%	64,9	58,8	-6,1
Yuk tashish	%	90,9	91,8	0,9
Yuk aylanmasi	%	92,5	92,9	0,4
Yo'lovchi tashish	%	97,7	77,9	-19,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	98,6	89,8	-8,8
Eksport	%	63,8	86,8	23,0
Import	%	91,1	67,3	-23,8


Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Sirdaryo viloyati	362	789
Guliston sh	88	186
Shirin sh	10	14
Yangiyer sh	41	52
Oqoltin t	25	40
Boyovut t	26	69
Sayhunobod t	37	52
Guliston t	30	62
Sardoba t	15	49
Mirzaobod t	17	69
Sirdaryo t	49	153
Xovos t	24	43

2019 - yilning yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Guliston shahrida - 186 ta, Sirdaryo tumanida - 153 ta. Boyovut tumanida - 69 ta, Mirzaobod tumanida - 69 ta, Guliston tumanida - 62 ta, Yangiyer shahrida - 52 ta, Sayhunobod tumanida - 52 ta, Sardoba, Xovos va Oqoltin tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 49-40 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Shirin shahri – 14 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 - yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Guliston sh ga – 23,6 %, Sirdaryo tumani – 19,4 %, Boyovut tumani – 8,7 %, Mirzaobod tumani – 8,7 %, Guliston tumani – 7,9 %, Yangier shahri – 6,6 %, Sayhunobod tumani – 6,6 %, Sardoba, Xovos va Oqoltin tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 5,1-6,2 % ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Shirin shahrida – 1,8 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	362	789
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	76	74
Sanoat	65	171
Qurilish	45	98
Savdo	106	273
Tashish va saqlash	11	19
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	26	109
Axborot va aloqa	4	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	3
Boshqa turdagi xizmatlar	25	39

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 273 ta, shuningdek :

sanoatda - 171 ta;

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 109 ta;

qurilishda - 98 ta

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 74 ni tashkil etdi


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-mart 2019 y.	yanvar-mart 2018 y.	farq (+-)
Guliston sh	186	88	98
Shirin sh	14	10	4
Yangier sh	52	41	11
Oqoltin tumani	40	25	15
Boyovut tumani	69	26	43
Sayhunobod tumani	52	37	15
Guliston tumani	62	30	32
Sardoba tumani	49	15	34
Mirzaobod tumani	69	17	52
Sirdaryo tumani	153	49	104
Xovos tumani	43	24	19

2019 yil yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Guliston shahrida – 186 ta, Sirdaryo tumanida - 153 ta, Boyovut tumanida - 69 ta. Mirzaobod tumanida bu ko'rsatkich 69 tani tashkil etdi, Guliston tumanida - 62 ta, Yangier shahrida - 52 ta. Sayhunobod tumanida - 52 ta, Sardoba tumanida – 49 ta, Xovos tumanida - 43 ta, Oqoltin tumani va Shirin shahrida bu ko'rsatkich 40 - 14 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



■ Yanvar-mart 2019 y. ■ Yanvar-mart 2018 y. ■ farq.(+/-)


2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Oqoltin tumanida 3,0 birlikda, Guliston shahrida 2,1 birlikda, Sardoba, Mirzaobod, Sirdaryo, Sayhunobod, Guliston, Boyovut tumanlari va Yangiyer shahrida o'rtacha ko'rsatkich 1,5 - 0,8 birlik oralig'ida aniqlandi. Xovos tumanida 0,6 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 17,9 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 18,6 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 0,7 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 34,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 99,3 %, qurilishda - 95,3 %, investitsiyada - 53,7 %, savdoda - 88,2 %, eksportda - 86,8 %, importda - 67,3 % va xizmatlar sohasidagi - 58,8 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 58,3 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 64,7 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Viloyat bo'yicha	34,0	95,3	58,8	53,7
Guliston sh	65,8	96,1	33,8	32,4
Shirin sh	45,1	99,9	97,4	54,2
Yangier sh	0,5	100,0	94,2	36,7
Oqoltin t	26,4	90,5	93,0	58,9
Boyovut t	44,9	98,8	81,3	34,1
Sayhunobod t	73,6	100,0	40,5	65,2
Guliston t	46,6	99,8	94,3	49,8
Sardoba t	65,1	100,0	77,5	44,4
Mirzaobod t	100,0	92,7	96,8	70,6
Sirdaryo t	50,7	99,8	94,1	89,0
Xovos t	82,0	69,7	94,2	46,9

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod tumani (100,0 %), Xovos tumani (82,0 %) va Sayhunobod tumani (73,6 %) tashkil etadi.

Qurilishda – Yangier shahar, Sayhunobod, Sardoba tumanlari (100 %), Shirin shahar (99,9 %), Boyovut, Guliston, Sirdaryo tumanlari (99,8 %) va Guliston shahar (96,1 %) tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Shirin shahar (97,4 %), Mirzaobod tumani (96,8 %) Guliston tumani (94,3 %), Yangier shahar va Xovos tumani (94,2 %), Sirdaryo tumani (94,1 %), Oqoltin tumani (93,0 %) tashkil etadi.

Investitsiyada – Sirdaryo tumani (89,0 %), Mirzaobod tumani (70,6 %) va Sayhunobod tumani (65,2 %) tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2019 yilning
yanvar-martida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 568,9 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 34,0 %) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 104,4% ni tashkil qildi;

279,3 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 53,7%) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 71,5%ni tashkil qildi;



169,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 95,3 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 106,0 %ni tashkil qildi;

319,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (respublika jami xizmatlar hajmining 58,8 %), 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 %ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 82,2 % yoki 591,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 2,0 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;

22,4 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 86,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 4,8 mln. AQSH dollariga yoki 27,6 %ga ko'p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 0,7 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 103,6 %) ko'payishi ta'minlanadi;

yo'lovchi aylanmasining esa 7,1 %ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 108,1 %) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat) larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Shirin shahar, Oqoltin, Sayhunobod, Mirzaobod tumanlarida 100,0 %, Boyovut, Xovos tumanlarida - 99,9 %, Sardoba tumanida – 99,3 %, Guliston tumanida – 99,2 %, Yangiyer shaharda - 96,8 %, Sirdaryo tumanida – 81,3 %, va Guliston shaharda eng past ko'rsatkichni – 67,7 % ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (212,2 mlrd. so'm), Guliston shahri (122,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (57,8 mlrd. so'm), Boyovut tumani (49,9 mlrd. so'm) Saynunobod tumani (37,8 mlrd. so'm), Yangier shahri (29,5 mlrd. so'm), Oqoltin tumani (15,8 mlrd. so'm), Xovos tumanida (15,3 mlrd. so'm), Guliston tumani (13,0 mlrd. so'm), Sardoba tumani (11,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Shirin shahrida (3,8 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (100,0 %), Sirdaryo tumani (82,0 %), Sayhunobod tumani (73,6 %), Guliston shahri (65,8 %), Sardoba tumani (65,1 %), Xovos tumani (50,7 %), Guliston tumani (46,6 %), Yangier shahri (45,1 %), Boyovut tumani (44,9 %), Oqoltin tumani (26,4 %) va Shirin shahrida (0,5 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (204,8 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (105,6 mlrd. so'm), Yangier shahrida (56,7 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (47,5 mlrd. so'm), Boyovut tumani (34,5 mlrd. so'm), va Oqoltin tumani (31,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahri (62,2 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (18,1 mlrd. so'm), Yangier shahri (14,6 mlrd. so'm) hamda Boyovut (13,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (95,6 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (61,8 mlrd. so'm), Yangier shahri (36,0 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (23,2 mlrd.so'm) va Xovos tumani (19,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 54 ta respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 11 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 20,4 %), qurilish - 7 (13,0 %), savdo - 18 (33,3 %), xizmatlar sohasi - 12 (22,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 6 (11,1 %) tashkil etdi.

2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Guliston shahrida – 27,8 % (15 ta), Shirin shahrida – 3,7 % (2 ta), Yangiyer shahrida – 5,6 % (3 ta), Sirdaryo tumanida – 14,8 % (8 ta), Oqoltin tumanida – 11,1 % (6 ta), Boyovut tumanida – 11,1 % (6 ta), Mirzaobod tumanida – 9,2 % (5 ta), Sayhunobod tumanida – 5,6 % (3 ta), Guliston tumanida – 5,6 % (3 ta), Xovos tumanida – 3,7 % (2 ta), Sardoba tumani ulushi 1,8 % (1 ta) ni tashkil qildi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 42,9 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 42,9 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 50,0 % va 38,9 %, xizmatlar sohasida – 33,3 % va 58,3 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 16,7 % va 33,3 %, sanoatda – 18,2 % va 72,7 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 9,1 %, qurilishda – 14,3 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 50,0 %, xizmatlarda – 8,3 % va savdoda – 11,1 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 72,7 % sanoat korxonalari, 100,0 % – savdo, 91,7 % – xizmatlar, 83,3 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 71,4 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: B.Mamadaliev

Tel.: (0371) 230-86-16